

ABU ALI IBN SINONING ILMIY MEROSIDAGI FALSAFIY QARASHLARNING XUSUSIYATLARI

“Alfraganus university”
nodavlat olyi ta’lim tashkiloti,
Qurbanov F
Ijtimoiy fanlar kafedrasи 2-kurs magstranti,

Annotatsiya: ushbu maqolada Abu Ali ibn Sinoning ilmiy qarashlari falsafiy jihatdan asoslangan. Xususan, mutafakkir ilmiy merosining falsafiy qarashlarining keyingi davr mutafakkirlari ijodiga ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, mutafakkir asarlarida sof diniy va falsafiy g’oyalarning inson dunyoqarashiga ta’siri ta’kidlangan. Shu bilan birga, bugungi kunda mutafakkirning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari ilmiy va qiyosiy tahlil qilingan. Xususan, mutafakkir ma’naviy merosining ijtimoiy g’oyalarning bir qator Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta’limotiga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so’zlar: mavjudlik, majburiy, Abu Ali ibn Sina’s natural-scientific views are philosophically justified. In particular, the influence of the philosophical views of the thinker’s scientific heritage on the work of thinkers of the next period is revealed. Also, the influence of purely religious and philosophical ideas in the thinker’s works on the human outlook is highlighted. At the same time, socio-philosophical features of the thinker have been scientifically and comparatively analyzed today. In particular, the impact of the social ideas of the thinker’s spiritual heritage on the teachings of a number of Central Asian thinkers is revealed.

Abstract: In this article, Abu Ali ibn Sina’s natural-scientific views are philosophically justified. In particular, the influence of the philosophical views of the thinker’s scientific heritage on the work of thinkers of the next period is revealed. Also, the influence of purely religious and philosophical ideas in the thinker’s works on the human outlook is highlighted. At the same time, socio-philosophical features of the thinker have been scientifically and comparatively analyzed today. In particular, the impact of the social ideas of the thinker’s spiritual heritage on the teachings of a number of Central Asian thinkers is revealed.

Key words: Existence is obligatory, Abu Ali ibn Sina’s scientific views, Existence is possible, enlightenment, medical foundations, religious views of the thinker, theoretical foundations of medicine, the direction of deism.

Аннотация: В этой статье научные взгляды Абу Али Ибн Сины основаны на философии. В частности, раскрывается влияние философских взглядов научного наследия мыслителя на творчество мыслителей более позднего периода. Также в работах мыслителя подчеркивается влияние чисто религиозных и философских идей на мировоззрение человека. Вместе с тем, сегодня социально-философские особенности мыслителя подвергаются научному и сравнительному анализу. В частности, раскрывается влияние социальных идей духовного наследия мыслителя на учение ряда среднеазиатских мыслителей.

Ключевые слова: бытие, обязательное, научное видение Абу Али Ибн Сины, бытие возможно, просветление, основы медицины, религиозное видение мыслителя, теоретические основы медицины, направление деизма.

Islom falsafasining buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino bo’lib, xususan, uning tibbiyatga oid «Tib qonunlari» asari Yevropada XVI asrgacha tibbiyat va uning sirlariga

oid tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘zida jamlagan darslik sifatida foydalanishi e’tirofga loyiqdir. O.Fayzullayevning: «Abu Ali Ibn Sino tibbiyotning ilmiy zaminini vujudga keltirdi»¹⁴, degan fikri ayni haqiqatdir. Bizning fikrimizcha, mutafakkirning tog‘larning vujudga kelishi, yer yuzasining davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib borishi, zilzilaning sabablari kabi turli jarayonlar oid qarashlari keyingi davrlarda geologiya ilmining rivojlanishiga katta turtki bo‘lgan. Shu bilan birga, u ayrim joylarning bir vaqtlar dengiz bo‘lganligi, shu sababli qattik qatlamlarda turli dengiz xayvonlarining izlari saqlanib qolganligi to‘g‘risidagi fikrlari tabiiy-ilmiy fanlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, Ibn Sinoning metafizik mavjudlik falsafasi borasida bir qator ilmiy qarashlarni ilgari surganligi va natijada, bu qarashlari yangi davr metafizik falsafasining shakllanishiga olib kelgan. Zamонавиъи metafizika olamning mutlaqo to‘xtab qolganligi emas, balki nisbiy turg‘unligini tan oladi. Mutafakkir fikricha, «Borliqning asosi va birinchi mohiyati «vujudi vojib» ya’ni Ollohdир»¹⁵. Shu jihatdan olib qarasak, vujudi vojibning mavjudligi o‘ziga bog‘liq bo‘lib, xususan, u vujudi mumkinni yaratuvchisi sifatida e’tirof qiladi. Bizning fikrimizcha, mutafakkirning bu kabi tabiiy-ilmiy qarashlari keyinchalik Sharq va G‘arb olimlarining koinot va borliqning yaratilishiga doir qarashlariga etarli darajada ta’sir ko‘rsatgan, deb ta’kidlash mumkin. Mutafakkir «Aql mezoni» asarida mexanikadagi oddiy sistemalar chig‘irlar, richaglar, bloklar, vintlar va ponalardan tuzilgan mexanizmlarning ishlash prinsiplarini bayon qilib beradi. Shunday qilib, uning asarlarida tabiatshunoslikning turli masalalarini o‘z ichiga oluvchi ilmiy qarashlarni ilgari surganligini alohida tilga olish lozimdir.

Uning «Tib qonunlari» kitobini esa tibbiyot ilmining fundamental asari sifatida e’tirof qilish joizdir. Unda o‘rtा asrlar tibbiyotining nazariy asoslari, usullari, insonlardagi turli xil kasallikkarning belgilari, dorilar va ularning xususiyatlari kabi bir qator tibbiyotga doir bilimlarni ilmiy asosda tavsiflab berishi alohida tahsinga loyiqdir. Bizning fikrimizcha, mutafakkirning tabiiy-ilmiy qarashlarida O‘rtа Osiyo mamlakatlarida yuqori madaniy «uyg‘onish»ning ilmiy yutuqlari jamlangan deyish mumkin. Shuningdek, u hozirgi kunda butun Yevropada rivojlangan tabiiy-ilmiy bilimlar tarakkiyotiga beqiyos darajada ta’sir ko‘rsatganligini xulosa qilish mumkin.

Ibn Sino insoniyat madaniyati, dunyo fani xazinasiga beqiyos katta xissa qo‘sghan, o‘sha davrdagi ilmlarning deyarli hamma sohalari bilan shug‘ullangan qomusiy olimdir. Turli manbalarda olim yaratgan asarlar turt yuz ellikdan ortiq deyiladi. Ammo hozircha fanga ma‘lum bo‘lgani ikki yuz atrofida bo‘lib, ularning kupchilik qismi falsafa va tibbiyotga aloqadordir. Ibn Sinoga jahon miqyosida shuhrat keltirgan asari besh kitobdan iborat bulgan “Al-qonun fi-t-tib”dir. “Qonun” Ibn Sinogacha Sharq, Gresiya va Rimda yaratilgan tibbiyot haqidagi ilm va shaxsiy tajriba yakunigina bulib qolmay, bu fanni uz davri uchun hayratomuz yuqori darajaga kutargan asardir. “Qonun” XII asrdayoq Toledoda Derardo tomonidan arab tilidan lotinchaga qisqartirilib tarjima etilgan. Derardo “Ash-shifo”ni ham lotin tiliga ag‘dargan. 1279 yili Natan ta Meati Rimda “Qonun”ning tuliq

¹⁴ Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. – Тошкент: Фалсафа ва хукуқ, 2006. – Б. 17.

¹⁵ Ибн Сино Трактат о разделении // Классификации существующих вещей // Материалы по истории прогрессивной философии. – М.: 2003. – С. 56.

nusxasini yahudiy tiliga tarjima etadi. Shu o'rinda olim ismining ovrupocha transkripsiysi haqida uz mulohazalarimizni aytib utmokchimiz. Mashhur islam olimi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning yozishicha: «Beruniy va Ibn Sinoning yerning jismlarni tortishi haqidagi va boshqa fikrlari Nyutonga tortishish kuchi haqidagi qonunini kashf qilishda yordam bergan»¹⁶. Yahudiy tarjimon “Ibn Sino” nomini yahudiy variantida “Aben Sena” deb bergan. U borib ogzaki tilda “Aven Sina”ga, bu variant lotin transkripsiyasida “Avisenna”ga aylangan. Olim asrlar davomida butun Ovrupo mamlakatlarida shu ism ostida mashhur bulgan. Ovrupoliklar arab ispaniyasidagi Sharq madaniyati bilan tuqnashmaguncha tibbiyot fanining eng dastlabki ma'lumotlari bilan ham tanish emas, kasalliklarni ibtidoiy yul bilan davolar edilar. Derardo amalga oshirgan Ibn Sino “Qonun”ining qisqartirilgan matni XIII aerda Fransiyaga, keyinchalik boshqa mamlakatlarga kirib keldi. Ko'pincha qirov va yirik aslzodalarining shaxsiy shifokorlari Ispaniyadan taklif etilgan yahudiylar bo'lib, ular Ibn Sino ta'limoti asosida ish ko'rganlar va olim usulini Ovrupoda ommalashtiruvchi bo'lganlar. Natijada “Qonun” shuhrati tez tarqalib, chop etuvchi uskana kashf etilgunga qadar o'nlab marotaba lotin tarjimasi ko'chirilib, qo'ldan-qo'liga o'tib yuradi. 1493-yil kitob bosish kashf etilgach, 20-30 yilda o'n olti marotaba chop etiladi. U davrda hech bir asar, hattoki isaviylarning diniy kitoblari ham shunchalik ko'p bosilmagan. Shuningdek, “Qonun” Ovruponing hamma universitetlarida to XVIII aergacha tibbiyot bo'yicha asosiy qo'llanma sifatida xizmat qilib kelgan. “Qonun”ning asosiy tomonlarini Ibn Sino tabobat haqidagi, 1322 baytdan iborat “Manzuma fit-tib” deb nomlangan urjuzada bayon qilgan. “Qonun” g'oyalari ko'proq ommalashgan va yodda yaxshi qolishi uchun olim uni she'r bilan yozgan. Derardo o'z tarjimasini “Cantica de Medicina” deb atagan. XII asrda “Urjuza”ga mashhur olim Ibn Rushd sharh yozgan. Sharhning lotincha tarjimasini Venesiyada Armengo de Blez bajargan. Bu asar XV asrgacha yana bir necha bor lotin tiliga agdarilib, 1498-yili ispan tiliga qisqartirilgan she'riy tarjimasi shoir va shifokor Fransisko Villyalobos tomonidan amalga oshirilgan. XVI asrda “Urjuza” lotin tiliga Jen Fosher tomonidan she'r bilan tarjima qilinib, chop etilgan. Ibn Sinoning tabobat haqidagi “Urjuza”si XVI-XVII asrlarda fransuz, ingliz, nemis va rumin tillariga ag'darilgan. Ibn Sino insoniyat tarixida faqat tibbiyotga oid oliy darajadagi asarlari bilangina emas, balki yetuk faylasuf olim sifatida ham yaxshigina iz qoldirgan¹⁷. Olimning falsafaga oid asarlarining eng yirigi “Kitob ash-shifo” bo'lib, mantiq, fizika, matematika va metafizika qismlarni o'z ichiga oladi. Mantiqning o'zi to'qqizit kitob, fizika sakkiz kitob, matematika turt va ilohiyot bir kitobdan iborat bo'lib, “Ash-shifo” yigirma ikki kitobni tashkil etadi. “Kitob an-Najot”, “Ash-shifo”ning qisqartirilgan turi bo'lib, tabiat, ilohiyot, riyoziyat qismlaridan iboratdir. Olimning falsafaga oid yirik asarlarining biri “Donishnama” boshqa asarlardan farqli o'laroq, Isfaxon amiri A'lo ud-Davla iltimosiga binoan fors tilida yozilgan. Bu kitob ham o'z navbatida mantiq, ilohiyot, tabiat, geometriya, astronomiya, arifmetika kabi qismlarga bo'lingan. Musiqa masalasida Ibn Sino Forobiy g'oyalalarini

¹⁶ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. З-жуз. Ният, ихлос, илм китоби. – Тошкент: Hisol-Nashir, 2020. – Б. 222.

¹⁷ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Тошкент: 1991. – 157 6.

yanada takomillashtirdi. Musiqashunos olim G.S.Vizgoning fikricha, “Ibn Sino nazariyalari o’sha davr uchun mutlaq yangilik edi. Uning musiqa haqidagi ta’limoti, Forobiyning musiqa nazariyasiga oid asarlari bilan bir qatorda Ovrupo musiqa fanining poydevorini tashkil etdi, u fan shular asosida o’sdi. Yuqoridagi yirik asarlardan tashqari Ibn Sino falsafaga oid yana bir risolalar ham yaratgan: “Al-Ansof” Aristotel asarlariga sharhlar, “Fi-l-hudud”, “Dikmat aloiya”, “Al-hikmat al-mushrshiya”, “Uyun al- hikma”, “al-Mabohisot” shular jumlasidandir. Ibn Sino nazariy asarlardan tanqari falsafiy qissalar ham yaratgan. Xususan “Hayy ibn Yakzon”, “Yusuf qissasi” va “Qissai Salomon va Ibsol”. Bu asarlarning mazmuni chuqur allegorik, majoziy ma’noga ega. Ulardagi badiiy obrazlar orqali yuksak axloqiy normalar, o‘z davri tushunchasidagi insonparvarlik g‘oyalari targ‘ib qilinadi. Buyuk olim adabiyot nazariyasiga ham qiziqqan, 1958 yil Londonda L.Dozhiyat ismli olim “Avisenna Aristotel “Poetikasi”ning sharhlovchisi” asarini chop ettirdi. Unda Ibn Sinodan quyidagi parchani keltiradi: grek she’riyati asosan harakat va his-tuyg‘uni tasvirlashga qaratilgan, boshqa hech narsa emas. Greklar nutq vositasi bilan harakatni kuchaytirganlar. Ular ba’zida notiqlik (san’ati), ba’zida she’rga murojaat qilganlar¹⁸. Demak, ular poetik taqlid, harakat va hissiyotga chorlaganlar. Ibn Sino o’rta asrlarning eng buyuk shifokori sifatida tibbiyotga oid asarlarida inson salomatligini saqlashga urinsa, falsafiy asarlari uning ruhiyatini sog‘lomlashtirishga qapatilgan. Faylasuf Sharq allomalariga xos bulgan xususiyat, ya’ni axloq, odob, inson psixologiyasining kamolotiga alohida azhamiyat beradi. Aristotel va Forobiy an'analarini davom ettirib, Ibn Sino ham ilmlar tasnifini ishlab chiqadi. Ibn Sinoning ilmlarga bo‘lgan munosabati borliqni bilib buladi degan ishonchidan kelib chiqqan. Olimning bu masaladagi fikri mutakallimlar qarashlariga zid edi. Shuning uchun kalom tarafdorlari, G‘azzoliy boshqa islom nazariyachilari ham Forobiy, ham Ibn Sino qarashlariga qarshi kurashga otlanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. – Тошкент: Фалсафа ва хукуқ, 2006. – Б. 17.
2. Ибн Сино Трактат о разделении // Классификации существующих вещей // Материалы по истории прогрессивной философии. – М.: 2003. – С. 56.
3. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. З-жуз. Ният, ихлос, илм китоби. – Тошкент: Hilol-Nashir, 2020. – Б. 222.
4. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент: 1991. – 157 б.
5. Древний город Средней Азии. Краткие тезисы докладов к заседанию на конференции. – М.: 1973.

¹⁸ Древний город Средней Азии. Краткие тезисы докладов к заседанию на конференции. - М.: 1973.